

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(1-hafta)



1-keys. “Mening tanlovim”



Vaziyat:

Ota-onasi Shohruhga bo'sh vaqtini o'zi rejalashtirish imkonini berdi. U do'stlari bilan o'ynash, kitob o'qish va sport bilan shug'ullanish o'rtasida tanlov qilishi kerak edi. Shohruh avval vazifalarini bajarib, keyin do'stlari bilan o'ynashga qaror qildi.



Savollar:

- 1 Shohruhga qanday erkinlik berildi?
- 2 U o'z erkinligidan qanday foydalandi?
- 3 Erkinlik nima uchun mas'uliyat bilan bog'liq?
- 4 Siz bo'sh vaqtingizni qanday rejalashtirgan bo'lardingiz?

Topshiriq:

“Mening erkinligim — mening mas'uliyatim” mavzusida 3 ta misol keltiring.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(1-hafta)



2-keys. “Oilaviy qaror”



Vaziyat:

Oiladagilar dam olish kuni qayerga borish haqida qaror qabul qilishdi. Dadası tog‘ga borishni, onasi muzeyga borishni, farzandlar esa bog‘ga borishni xohlashdi.



Savollar:

- 1 Qanday qilib umumiy qarorga kelish mumkin?
- 2 Har bir oila a‘zosining fikrini eshitish nima uchun muhim?
- 3 Oilaviy mustaqillik deganda nimani tushunasiz?
- 4 Siz qanday qaror taklif qilgan bo‘lardingiz?

Topshiriq:

Guruhda “Oilada qaror qabul qilishning 4 qadami”ni yozing.

